



O'ZBEK MILLIY DO'PPILARI TARIXI VA ULARNING TURLARI

Ashurova S.O.

TDPU, Tasviriy san'at va amaliy bezak
san'ati mutaxassisligi magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7162702>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022
Accepted: 04th October 2022
Online: 08th October 2022

KEY WORDS

O'rta Osiyo, Movoraunnahr, O'zbekiston, xalq amaliy san'ati, madaniy meros, istedod, milliy hunarmandchilik, bosh kiyim, qadryat, an'ana, san'at, milliylik, do'ppi, bezak, naqsh, erkaklar, ayollar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbek millatining milliy bosh kiyimi hisoblangan do'ppi haqida fikr yuritilgan. Maqolada do'ppido'zlikning tarixi uning ahamiyati va bugungi kunda do'ppido'lik san'atining rivojlanishi yo'lida qilinayotgan ishlar haqida fikr yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2021-yil PQ-2991-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unda Tasviriy va amaliy san'at sohalarida milliy merosimizni tiklash, Kamoliddin Behzodning boy ijodiy merosini xalqimizga to'la yetkazish, soha rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo'nalishda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni tashkil etish, mamlakatimizda tasviriy va amaliy san'at, dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish maqsadida "Kamoliddin Behzod izdoshlari" miniatyura va xalq amaliy san'ati asarlari ijodiy tanlovini tashkil etish va uni har yili an'anaviy tarzda o'tkazib borish belgilangan.¹

O'zbekistonda azaldan noyob iste'dodli odamlar yashab, xalq san'atining nodir an'analarini asrab-avaylab, avloddan-avlodga yetkazib kelmoqdalar. Ushbu an'analar bizning tariximizni, ajoyib madaniyatimiz va milliy qadriyatlarimizni unutishga yo'l bermaydi. Agar siz ham xalq amaliy san'ati hunarmandchiligi durdonalari bilan tanishmoqchi bo'lsangiz maftunkor Sharqning haqiqiy sehridan bahramand bo'lishga imkon beradigan eng mashhur turlari kulollik buyumlari, ipakdan, jundan to'qilgan gazlamalar, har xil gilamlar, paloslar, yog'och va metallardan ishlangan uy-ro'zgor ashyolari, gul chekib o'yilgan marmar tosh buyumlari, badiiy kashta bilan bezalgan so'zanalar, guldor jiyaklar, zarhal kashtalar, turli xil do'ppilardir. Amaliy san'atning bu turlari har manzilning o'ziga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga

doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. PQ-2991. 21.04.2020 y.



xos mahalliy xususiyatlariga ega bo'lib, shakl va naqsh bo'yoqlarida aks ettiriladi. Bu esa ustalar orasida o'ziga xos ishlov buyumlari va xilma-xil bezash asboblari mavjudligidan dalolat beradi.

Amaliy san'atning o'ziga xos turlaridan biri bu do'ppido'zlikdir. Dastlab do'ppilar qachon va qayerda paydo bo'lgan uning tarixi qayerga borib taqaladi. Etnograf olim Л.Будагов Ценкерга (Сенги-Лахи лугати) ga tayangan holda bu so'z turcha "tube", "tupe"- (cho'qqi, tepalik) so'zlaridan kelib chiqqan, deb yozadi va boshning tepasiga kiyiladigan shapka ma'nosida ikki variantini "tubetay" va "tuppi"ni keltiradi.² Do'ppi O'rta Osiyoda qadim zamonlardan beri milliy libosning bir qismini to'ldirib kelgan. Qadimdan kashta tikilgan do'ppilarni erkaklar ham ayyolarimiz ham kiyishgan. Shu bilan bir qatorda O'rta Osiyoda yashaydigan ko'plab xalqlarning ham bosh kiyimi hisoblanadi. Do'ppi butun musulmon xalqning bosh kiyimidir, u shakli, rangi, naqshi, yo'nalishi va jug'rofiy kelib chiqishiga qarab farqlanadi.

Xalq amaliy san'atining eng ommabop va keng tarqalgan turlaridan biri do'ppi bo'lib, u erkaklar ayollar va bolalar milliy kiyimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Do'ppining qadim zamonlarda ham mavjud bo'lganini tasdiqlovchi

arxeologik yodgorliklar, devoriy yozuvlar, terakota haykalchalar XV-XVI asrlarga oid sharq miniatyura san'atida ko'rishimiz mumkin. Panjikent tasviriy san'atida ham bir nechta bosh kiyimlari saqlanib qolgan. Movarounnahr (XV-XVII asrlar) va Samarqand (XVI asrning birinchi yarmi) sharq miniatyuralarida ayollarning turli tuman bosh kiyimlari uchraydi. Qiz bolalar va yosh ayollar gardishli, qavilgan dumaloq baxmal do'pilarni kiyishgan.³

Do'ppilarning shakli, bezaklarining o'ziga xosligi, naqshlarining rangi, etnik va hududiy aloqadorligi hamda qayerda va qay maqsadda foydalanishni inobatga olgan holda alohida ko'rib chiqishimiz mumkin.

XX asrning 30 yillarida Farg'ona do'ppichiligida chust nusxalli do'ppi yaratilgan. U o'zining sipoligi, qulayligi ko'rkamligi bilan O'zbekistonning hamma viloyatlarida keng tarqalgan. Bunday do'ppi erkaklar, yigitlar kiyishiga mo'ljallangan bo'lib, hozirgacha xalqimizning boshidan tushmay, sevimli do'ppilardan biri bo'lib kelmoqda. Farg'ona do'ppichiligida erkaklar uchun mo'ljallangan chust do'ppilaridan keyin ularga o'xshatma qilib Marg'ilon do'ppilari yaratildi. Marg'ilon do'ppilariga ham asosan qora rangdagi satin va ipak matolar, astariga paxta mato ishlatilgan.

²Sodiqova N, G'aybullayeva Y. "O'zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar". Toshkent: Sharq, 2014. 10 bet


³G'aybullayeva, Y. Do'ppilar tarixidan. Toshkent: Moziydan sado. 2010. 2-3. bet



Chust va Marg'ilon do'ppilari⁴

O'tgan asrlarda Toshkentda erkaklar uchun mo'ljallangan do'ppilarning ko'p xillari mavjud bo'lgan. Tepasi konussimon, kizagi keng, enli jiyak (4-5 sm) tikiladigan do'ppilar bo'lgan-ki, ular och va to'q yashil

ipak matolar, satin, bazida esa yashil bo'zdan tayyorlangan. Kashta gullari do'ppi tepasining to'rt tomoniga bir xil, kizagiga ham shu gullarga mos naqshlar tanlab tikilgan.



Keksa yoshdagi erkaklarning duhoba do'ppisi. Toshkent, XX-asr oxiri⁵

Samarqandning urgut do'ppilari barcha davrlarda o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Samarqandda qora satinga tikilgan tepasi baland, gumbazsimon, kizagi keng, to'q rangli matodan jiyak tikiladigan do'ppilarni erkaklar sevib kiyganlar. XX asrning boshlaridan ko'rinishi dumaloq,

tepasi tekis, kizagi baland, piltado'zi texnikasida tikiladigan do'ppilar ayollar va qizlar o'rtasida urf bo'lgan.

Buxoro uslubiga xos do'ppilarning eng mashhuri zardo'zi do'ppilardir. O'zbek xalqining juda qadimiy kashtachilik merosi turlaridan biri bo'lgan zardo'zlik san'atini

⁴ Nurillayeva Zulayxo Bitiruv malakaviy ishi .Toshkent.: 2020. 53 bet

⁵ Sodiqova N,G'aybullayeva Y. O'zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar T.: 2014. 260 bet

Buxorolik hunarmand chevar ustalar hozirgacha saqlab kelmoqdalar.



Ayollar zar do'ppilari Buxoro , XX asr boshlari⁶

Qashqadaryoda juda qadimdan iroqi nusxa do'ppilar tayyorlab kelingan. Bunday do'ppilarga iroqi gul tikish usullarining asosan, sanama, bosma chok xillari ishlatiladi. Qashqadaryoda iroqi do'ppilardan tashqari piltado'zi, yoki to'ldirma deb nomlangan do'ppilar keng iste'molda bo'lgan.



Surxondaryo do'ppilarning piltado'zi yoki to'ldirma, pulakcha yoki tangacha va shabanok yoki munchoqli do'ppi deb atalgan turlari ko'p tarqalgan bo'lib, hozirgacha xalqimizning boshidan tushmay kelmoqda.⁷

Shu jumladan aytib o'tishimiz kerakki quyda keltirib o'tilgan do'ppilardagi har bir gul va naqshlar o'z ma'nosiga egadir.

Buni esa hammamiz ham anglab yetavermaymiz. Bir qarashda oddiygina ko'ringan bu bosh kiyim bizning tariximizdan so'zlaydi. Millatimizning milliy ramzi bo'lgan do'ppilarimizni farqlay oladigan kishilargina o'zi uchun munosibini tanlab oladi.

Darhaqiqat, qadimgi ajdodlarimiz do'ppilarga juda ko'p ma'no-mazmunni singdirgan bo'lib, do'ppidagi biror bir qism, biror bir nuqta unga shunchaki kiritilgan emas. San'atshunos M.Foziliy do'ppidagi tasvir avlodlar davomiyligini ta'minlovchi homila bilan bog'liq deb hisoblaydi. Boshqa tadqiqotchilar esa do'ppidagi qalampirmunchoq tasviri do'ppi egasini turli balo-qazolardan asrovchi magik himoya vositasi bo'lgan deb ta'kidlaydi. Aynan shu sababga ko'ra vodiya erkaklarning do'ppisiz, yalangbosh yurishlari noaxloqiy alomat tarzida tushunilgan. Erkaklar har qanday holatda ishda, ibodat paytida ovqatlanishda, ko'chada bayram va sayllarda va hatto uxlaganlarida ham boshlarida do'ppi bo'lishi lozim bo'lgan. Do'ppi go'yoki

⁶Sodiqova N,G'aybullayeva Y. O'zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar T.: 2014. 274 bet

⁷Mamasoliyeva. Sh. L. Xalq hunarmandchiligi o'uv qo'llanma. Samarqand.: 2021. 149-154 bet



insonlarni tashqi olamning turli ta'sirlaridan, insjinslar, yomon ko'zlardan asrovchi o'ziga xos magik kiyim vazifasini bajargan. Oldinlari ba'zi holatlarda to'y tayin qilinib, kuyov ma'lum bir sabablar bilan o'z nigoh to'yida qatnasha olmasa, kelin uning do'ppisi yoki pichog'iga nigoh qilingan. Lekin davrlar o'tishi bilan bosh kiyimning asl ma'nosi unutilib, oddiy maishiy ma'nosiga saqlanib qolgan.⁸

Milliyligimizning bir bo'lagi sifatida do'ppilarimiz hozirgi kunda ham o'z qadr qiymatini yo'qotgan emas. Ustoz shogird an'analarini davom etkizgan holda bugungi kunda do'ppido'zlik maktablari o'z faoliyatini yuritib kelmoqdalar.

"Qayga bormay, boshda do'ppim, g'oz yurarman gerdayib", deganida sevimli shoirimiz Erkin Vohidov milliy bosh kiyimimizga qanchalar haqli bino qo'yganini hamisha azizu mukarram do'ppilarimizga boqib ko'zimiz quvnaganida yana bir karra his qilib, g'ururlanamiz. Ikki o'rim sochning ustiga nozik qo'nib, zulflar husniga husn qo'shgan iroqi do'ppilar qizlarimizga zeb bersa, qalampir gulli, bodom gulli, toshkent do'ppi, chust do'ppi, andijon do'ppilar yigitlarimizni asl beklarday bezaydi.⁹

Hozirda mamlakatimizda do'ppi ishlab chiqarish ham zamonaviy holatda rivojlantirilmoqda. Yurtimizda do'ppi ishlab chiqaruvchi korxonalar ham mavjud. O'tgan yillarda do'ppido'zlikni rivojlantirish

maqsadida bir qancha ko'rgazmalar bo'ldi va hamon bo'lib kelmoqda. Misol uchun Toshkentda "O'zbekim do'ppilari" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Unda shaxsiy kolleksiyalardan o'rin egallagan 211 dona do'ppilar namoyish etildi. YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston milliy komissiyasi, Koreya Respublikasi madaniy meros jamg'armasi, Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti hamda respublika "Hunarmand" uyushmasi hamkorligida Marg'ilon shahrida bo'lib o'tgan do'ppido'zlikni rivojlantirishga qaratilgan ko'rgazmalar o'zbek do'ppilari dovrug'ini dunyoga yoymoqda.¹⁰

Milliy liboslarimizda xalqimizning ko'p asrlilik o'tmishi, qadimiy urf odatlari an'analari, didi estetik qarashlari mujassamdir. Milliy liboslarimizdan biri bosh kiyim do'ppida ham yoshlarga xos ibo va hayo aks etgan. Biz esa hech ikkilanmasdan ayollarimizning milliy liboslarida milliylilik xususiyatlarini targ'ib etishimiz mumkun. Xulosa qilib aytganda xalq amaliy san'ati Sharq xalqlarining uzoq yillik qadimiy qadryatidir. Do'ppi kiyish, o'zbek milliy kiyim boshlarining ajralmas qismi sifatida xalqning hayotiga, an'analariga singib ketgan. Milliyligimizni saqlab qolgan holda yosh avlodni kasb-hunarga o'rgatish muhim ahamyatga egadir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. PQ-2991. 21.04.2020.

⁸Haydarov . Z.U.Nomoddiy madaniy meros.Namangan.: 2014 . 151-152.b

⁹ <https://yuz.uz/uz/news/chust-doppilar-andijon-doppilar-humo-qushli-doppilar>

¹⁰Farangiz Ikromova . Boshimda tursa O'zbekim do'ppisi .// INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. .№ 4. 2022. 55-bet.



2. Ikromova F. Boshimda tursa O'zbekim do'ppisi // INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022. № 4.
3. Foziliy M. Do'ppi kosmogoniyasi yoki bodom tasviri emas. T.: San'at. 2005.
4. Haydarov Z.U. Nomoddiy madaniy meros. Namangan. 2014. 151-152 b.
5. Kamoliddin Sh. O'zbek do'ppisi tarixidan. Moziydan sado. Toshkent.: 2017. №3.
6. Mamasoliyeva Sh. Xalq hunarmandchiligi. (O'quv qo'llanma). Samarqand. 2021.149-154 b.
7. Nurillayeva Z. Bitiruv malakaviy ishi . Toshkent: 2020.
8. Sodiqova N, G'aybullayeva Y. O'zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar. Toshkent. 2014.
9. G'aybullayeva Y. Do'pillar tarixidan. T.: Moziydan sado. 2010.
10. <https://uzbekistan.travel/uz/c/xalq-sanati/>
11. <https://qalampir.uz/uz/news/kamoliddin-be%D2%B3zod-tavalludining-565-yilligi-keng-nishonlanadi-prezident-karori-17986>